

SPORT FAOLIYATINING INSON MA'NAVIY-ESTETIK DUNYOQARASHI RIVOJIGA TA'SIRI

Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport faoliyatining inson ma'naviy-estetik dunyoqarashi rivojiga ta'siri falsafiy, estetik va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Sportning jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati bilan bir qatorda, uning shaxs ma'naviyati, estetik didi va ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritib berilgan. Antik falsafada tana va ruh munosabatiga oid qarashlar misolida sportning zamonaviy talqini asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Sport, jismoniy madaniyat, sport estetikasi, ma'naviyat, estetik did, tana va ruh uyg'unligi, Olimpiya harakati, ijodkorlik, garmoniya, atlet obrazi.

ВЛИЯНИЕ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье влияние спортивной деятельности на развитие духовно-эстетического мировоззрения человека анализируется с философской, эстетической и социальной точек зрения. Наряду со значением спорта как средства физического воспитания, раскрывается его роль в формировании духовности личности, эстетического вкуса и творческого мышления. На примере взглядов античной философии о соотношении тела и духа обосновывается современная интерпретация спорта.

Ключевые слова: Спорт, физическая культура, эстетика спорта, духовность, эстетический вкус, гармония тела и духа, Олимпийское движение, творчество, гармония, образ атлета.

THE INFLUENCE OF SPORTS ACTIVITIES ON THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL AND AESTHETIC WORLDVIEW OF AN INDIVIDUAL

Abstract: This article analyzes the impact of sports activities on the development of a person's spiritual and aesthetic worldview from philosophical, aesthetic, and social perspectives. Along with the significance of sport as a means of physical education, its role in shaping personal spirituality, aesthetic taste, and creative thinking is highlighted. Based on the ideas of ancient philosophy regarding the relationship between body and soul, a modern interpretation of sport is substantiated.

Keywords: Sport, physical culture, sports aesthetics, spirituality, aesthetic taste, harmony of body and soul, Olympic movement, creativity, harmony, image of the athlete.

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy rivojlanish sharoitida sport nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki shaxsning ma'naviy-estetik kamolotini ta'minlovchi muhim madaniy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq o'yinlar va jismoniy mashqlar inson hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Sport yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va estetik jihatdan barkamol etib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichida o'yinli harakatlar hamda sportning dastlabki elementlari jismoniy tarbiyaning muhim samarali vositasi bo'lgan. Shuning uchun ham yoshlarning jismoniy ulg'ayishlariga muntazam e'tibor qaratish, jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini yuqori darajaga ko'tarish jamiyatning ravnaqi uchun xizmat qilishini nazardan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Sportchi tanasidagi jismoniy, ruhiy (aqliy) quvvati doimo bir-birini to'ldirib keladi. Ulardan birining taraqqiyoti ikkinchisi rivojiga hech qachon to'sqinlik qilmaydi. Ma'naviyat individual qadriyat sifatida insonning "men" chegarasidan tashqariga chiqish mexanizmini o'rnatadi hamda o'zining jismoniy tanasini rivojlantirishga, inson ichidagi dualistik bo'shliqni tana va ongga yengib o'tishiga imkon beradi. Sport faoliyati jarayonida inson tanasi va ongining o'zaro uyg'unligi yuzaga keladi. Jismoniy mashqlar orqali inson o'z tanasini boshqarish, intizom, iroda va maqsadga intiluvchanlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, sport estetik zavq, go'zallikni his etish va uni idrok qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa shaxs dunyoqarashining kengayishiga, ma'naviy ehtiyojlarining ortishiga xizmat qiladi. Falsafa tarixida tana va ruh munosabatiga oid turli qarashlar mavjud bo'lib, ayrim ta'limotlarda ruh tanadan ustun qo'yilgan. Biroq zamonaviy sport falsafasi va estetikasi inson kamolotida tana va ruhning qarama-qarshiligini emas, balki ularning uyg'un rivojlanishini asosiy tamoyil sifatida e'tirof etadi. Aynan sport faoliyati ushbu uyg'unlikni amaliy jihatdan namoyon etuvchi vosita hisoblanadi.

Mazkur ishning maqsadi sport faoliyatining inson ma'naviy-estetik dunyoqarashi rivojiga ta'sirini ochib berish, sport estetikasi tushunchasini tahlil qilish hamda sportning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq o'yin va sport unsurlari jismoniy tarbiyaning muhim vositasi sifatida shakllangan. Shu bois yosh avlodning jismoniy kamolotiga doimiy e'tibor qaratish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamiyat ravnaqining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Sport inson tanasidagi jismoniy va ruhiy (aqliy) quvvatning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu ikki jihat bir-birini to'ldiradi va biri ikkinchisiga to'sqinlik qilmaydi. Aksincha, ma'naviyat insonning o'z jismoniy tanasiga ongli munosabatini shakllantirib, tana va ong o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Antik falsafada tana va ruh munosabatiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan. Aflotun ruhni tanadan ustun qo'yib, tanani ruhning soyasi sifatida talqin etgan. Suqrot esa tana ehtirolari insonni moddiy dunyoga

bog‘lab qo‘yishini, ruh esa faqat tanadan xalos bo‘lgandagina haqiqatga erishishini ta’kidlagan. Ushbu qarashlar qadimgi yunon falsafasidagi “orfeizm” ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lib, unda ruh ilohiy, tana esa nopok deb hisoblangan. Shunga qaramay, zamonaviy sport falsafasida tana va ruhning qarama-qarshiligi emas, balki ularning uyg‘unligi asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Sport estetikasini anglashda Olimpiya harakatining “Tezroq, balandroq, kuchliroq” (“Citius, Altius, Fortius”) shiori muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu shior sportchining jismoniy va ma’naviy intilishlarini ifodalaydi. Tezlik sportdagi go‘zallik va dinamaning asosi bo‘lsa, balandlik ulug‘vorlik va yuksaklik ramzi, kuch esa inson tanasining imkoniyatlarini namoyon etuvchi omil hisoblanadi. Mazkur uchlik sport estetikasi va insoniyatni birlashtiruvchi umumiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Jismoniy madaniyat bir qator umummadaniy funksiyalarni bajaradi. Ular orasida ma’naviy tarbiya, ma’rifiy, kommunikativ, dam olish, axborot almashinuvi va normativ funksiyalar muhim o‘rin tutadi. Sport nafaqat jismoniy rivojlanish, balki shaxsning estetik didi, irodasi va ijodiy tafakkurini ham shakllantiradi. Ayniqsa, figurali uchish, badiiy gimnastika, sport akrobatikasi kabi sport turlarida sportchidan ijodiy yondashuv, yangi harakat va uslublarni yaratish talab etiladi. Ko‘plab sport elementlari ularni birinchi bo‘lib ijro etgan sportchilar nomi bilan atalishi ham sportdagi ijodkorlikning yorqin dalilidir. Sport turlari jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib, yangi shakllar bilan boyib bormoqda. Ayrim sport turlarining estetik mezonlari boshqalariga nisbatan farq qilsa-da, sportdagi go‘zallikni baholashda umumiy mezonlar mavjud. Sport yutuqlari nafaqat texnik ko‘rsatkichlar, balki estetik jihatlar asosida ham baholanadi. Buning uchun tomoshabinning estetik didi shakllangan bo‘lishi zarur. Estetik did insonning ichki dunyosi, xulq-atvori va ijodiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Figurali uchish, fristayl, sport akrobatikasi, sinxron suzish, suvga sakrash kabi sport turlari o‘zining nafisligi, uyg‘unligi va tomoshabopligi bilan ajralib turadi. Ushbu sport turlarida ritm, harakat ravonligi, muvozanat, texnik mukammallik va badiiy ifodalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, figurali uchishda musiqa va harakat uyg‘unligi, suvga sakrashda esa havodagi yengillik va suvga kam sachratib tushish estetik go‘zallik mezonlari sifatida baholanadi. Sportning eng ommaviy turlaridan biri bo‘lgan futbol ham estetik jihatdan katta ahamiyatga ega. Futbolda tezlik, fikrlash chaqqonligi, texnik mahorat va jamoaviy uyg‘unlik tomoshabinlarda estetik zavq uyg‘otadi. Trener tomonidan puxta tashkil etilgan o‘yin va samarali kombinatsiyalar futbolni nafaqat sport, balki tomoshabop san’at darajasiga ko‘taradi. Sport estetikasida atlet obrazi muhim o‘rin tutadi. Atlet tanasining mutanosibligi, harakatlarining uyg‘unligi va jismoniy mukammalligi sportdagi go‘zallikning eng yuqori ifodasi hisoblanadi. Inson tanasining simmetriyasi, muvozanati va nazorat ostida rivojlanishi jismoniy garmoniya belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Me’yor tushunchasi sport estetikasi uchun asosiy tamoyil bo‘lib, shakl va mazmun, imkoniyat va voqelik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, sport faoliyati insonning jismoniy kamoloti bilan bir qatorda uning ma’naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Sport jarayonida namoyon bo‘ladigan uyg‘unlik, ritm, muvozanat, nafislik va ijodkorlik shaxs estetik didining rivojlanishiga xizmat qiladi. Sportchi harakatlaridagi go‘zallik, aniqlik va mukammallik nafaqat sport natijalarida, balki tomoshabinlarda estetik zavq uyg‘otishda ham muhim o‘rin tutadi. Figurali uchish, sport gimnastikasi, suvga sakrash, sinxron suzish kabi sport turlari sportning san‘at bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu sport turlarida jismoniy kuch, texnik mahorat va badiiy ifoda bir butunlikda namoyon bo‘ladi. Futbol kabi ommaviy sport turlari esa jamoaviy uyg‘unlik, tezkor fikrlash va estetik kombinatsiyalar orqali sportning tomoshaboplik xususiyatini oshiradi. Sport estetikasi atlet obrazida o‘zining eng yuksak ifodasini topadi. Atlet tanasining mutanosibligi, harakatlarning uyg‘unligi va me‘yoriy rivojlanishi sportdagi go‘zallikning asosiy mezonlaridan biridir. Sport orqali inson o‘z tanasini anglaydi, uni nazorat qilishni o‘rganadi va jismoniy hamda ma‘naviy garmoniyaga erishadi. Shu bois sportni faqat jismoniy faollik sifatida emas, balki ma‘naviy-estetik tarbiya vositasi sifatida ham baholash zarur. Bugungi kunda sportning ma‘naviy-estetik jihatlarini chuqur o‘rganish, ilmiy tadqiq etish va amaliyotga tatbiq etish jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Акчурин Б.Г. Человеческая телесность: трансцендентальная сущность и социальные аспекты её идентификации. - Уфа: Гилем, 2005. - С. 224
2. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, 2004. Б-318.
3. Гуревич А.Я. Культура и общество средневековой Европы глазами современников (Ехетрlа XIII века). - М.: Искусство, 1989. - С. 167.
4. Kipchakov B.B. Sport o‘yinlari. Toshkent: “Ilmiy texnika axboroti-pres nashriyoti”, 2018. B-82.
5. Олимов Ш.Ш. Жисмоний ва маънавий-ахлоқий тарбия интеграцияси. Бухоро. “Дурдона”, 2020. Б- 58-59.